INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

O'RTA OSIYO VA O'ZBEK XALQ BAYRAM TOMOSHA SAN'ATNING PAYDO BO'LISHI HAMDA SHAKLANISHI

san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Oxundedaev Xojiakbar Maxamadali o'g'li
Namangan Davlat texnika universiteti
oxundadaevhojiakbar@gmail.com
+99891 355 09 57.

Annotatsiya: Ilk davrda O'rta Osiyo va O'zbek xalq ommaviy bayramlarning mohiyati, tasviriy jarayonining o'ziga xosligi, tomosha saxnasining badiiy jarayonlari, Zardushtiylik marosimi ommaviy bayramlarning davri bog'liqligi va o'ziga xosligi ilmiy va tahliliy nazariyasi haqida tahlil qilingan.

Kalit so'zi: Qadimgi Eron, Afg'on, Farg'ona vodiysi, Kushoniylar ommaviy bayram, maydon tomoshalari, diniy qarash marosimlar, Navro'z, bayramlar va badiiy bezaklar, sahnalarning o'ziga xosligi va mohiyatining farqi .

Annotation: in the early period, Central Asia and the Uzbek people were analyzed about the essence of public holidays, the peculiarity of the pictorial process, the artistic processes of the watch saga, the Zoroastrian ritual scientific and analytical theory of the connection and originality of the period of public holidays.nnection and originality of the period of public holidays.

Keywords: Ancient Iran, Afghanistan, Fergana Valley, Kushan, mass celebrations, public performances, religious rituals, Nowruz, holidays

Аннотация: В ранний период Среднеазиатский и узбекский народ анализировались сущность массовых праздников, своеобразие изобразительного процесса, художественные процессы зрелищной сцены, зороастрийский обряд как научная и аналитическая теория зависимости и своеобразия периода массовых праздников.

Ключевое слово: Древний Иран, Афганистан, Ферганская долина, кушанский массовый праздник, площадные зрелища, религиозные обряды, Навруз, праздники

Jahon san'atshunosligida ommaviy tomosha ssenografiyasining yaratilishi, rivojlanishi va badiiy xususiyatlari turli qadriyatlar va etnografik milliy tamoyil kesimida tadqiq etilmoqda. Transformatsiyalangan sahnalarda konstruktivizm, kubizm, ekspressionizm oqimlari tasviriy yechimidan foydalanish usullari ommaviy rejissuraning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Ommaviy tomoshalardagi jonli figuralarning o'ziga xos ritmi, tarixiy-ijtimoiy voqealar ta'sirida tomoshalarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar indikatori sifatidagi o'rnini o'rganish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

Ilk davirlarda tomoshalar e'tiqodiy tushunchalar, marosimlar bilan uzviy bog'liq. Insoniyat yaralibdiki, tabiatdagi har bir hodisaga o'z munosabatini bildirib keladi. Ba'zi holatlar uni xavfga solsa, boshqa hodisa qiziqishini oshirgan, tasavvurini charxlagan. Har bir xalqdagi bayram-tomoshalarning kelib chiqish tarixi, mohiyati va rivojlanishi bo'ladi. Bu biror bayramning qanchalik qadimiy ekanligidan dalolat beradi. Xalq tomoshalari va bayramlari paydo bo'lgan davrdan boshlab to shu kungacha evolyutsiya davom etmoqda. Ba'zi bayramlar rivojlanish bosqichida mohiyatini ham o'zgartirgan. Xalqlarning madaniyati, san'ati va yashash sharoiti biror bir bayramning paydo bo'lishi yoki uning yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'lgan. Qadim davrlardan odamlar o'z hissiyot va e'tiqodlarini turli uslublarda ifodalashga uringan. O'z qarash va fikrlarini keyingi avlodlarga qoldirishga harakat qilgan. Hali shaharlar vujudga kelmagan davrlarda turli manzilgohlarda, g'orlarda yashagan insonlar o'z kechinmalari, hissiyotlari, qarash va tasavvurlarini g'or devorlariga, toshlarda aks ettirgan. Bugun oddiy maishiy turmush holatlari, ov jarayonlari aks etgan toshbitik va tasvirlar ko'hna tarixni

jonlantirmoqda. Qabilalardan tortib jamiyat shakllanishi, diniy-e'tiqodiy qarashlar paydo bo'lishi, insoniyat tarixidagi ilk marosimlarning shakllanishiga olib keldi. Dastlabki marosimlar, albatta, odamlar hayotidagi qandaydir e'tiqodlar bilan bog'liq edi. Hali qabilalar to'liq birlashmagan, butun bir to'liq jamiyat shakllanmagan davrlardanoq turli marosimlar va tomosha shakllari paydo bo'la boshlagan. Bu jarayon insoniyat tamaddunida ulkan ahamiyatga ega. Evolyutsiyaning mana shu bosqichi bugungi kundagi ko'plab madaniyat va san'at turlarining shakllanishiga olib kelgan. Markaziy Osiyo xalqlarining ming yillik tarixi, urf-odatlari va ko'hna madaniyatidan darak beradi. Navro'z bayrami Sharqda yangi yil, yangilanish, tabiatning uyg'onishi sifatida ta'riflansa-da, uning zamirida asrlar osha davom etayotgan an'analar, urf-odatlar ko'zga tashlanadi. Albatta, har bir mintaqa yoki xalqning milliy bayramlari bo'ladi. Bayram va marosimlarning ahamiyati uning nishonlanishi, bayram qilinishi darajasi bilan o'lchanadi. Ba'zi sanalar shunchaki bayram sifatida eslansa yoki kichik doirada nishonlansa, boshqa bir bayramlar katta tomoshalar bilan umumxalq darajasida nishonlanadi. Tarixga murojaat qilinsa, aksariyat bayramlar ma'lum bir diniy xarakter, mazmunga ega bo'lganligini kuzatamiz. Aksariyat hollarda katta bayramlarning keng darajada nishonlanishi ma'lum bir xalq, mamlakatning asrlik an'ana va orzu-umidlari bilan bog'liq. Diniy xarakterga ega bo'lmagan bir qancha bayramlar ham katta shodiyonalar, ommaviy tomoshalar bilan qarshi olinishi mumkin. Biror o'lka yoki davlatning milliy kuni, mustaqillik kuni bayramlari shular jumlasidan. Mustaqillik sanalari yoki millat bayramlari siyosiy ahamiyatga ega bo'lib, katta tantanalar bilan ommaviy tomosha shaklida nishonlanadi. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida mustaqillik kuni teatrlashgan ommaviy tomoshalar bilan bayram qilinadi. Masalan, O'zbekistonda mavjud bayramlarni kuzatadigan bo'lsak, ularni bir necha toifa va turkumlarga bo'lishimiz mumkin. Davlat miqyosidagi bayramlar, siyosiy ahamiyatga ega bayramlar, diniy xarakterdagi bayramlar, mavsum bilan bog'liq bayramlarga ajratish mumkin.

Ba'zan bayram va marosimlarning ahamiyatini o'rganish uchun bir mamlakat va xalqning tarixini o'rganish ozlik qiladi. Butun bir mintaqa xalqlari tarixi, diniy qarashlarini tadqiq qilishga to'g'ri keladi. O'zbekistondagi bayramlar turkiyzabon qardosh xalqlarning bayramlari, marosim va urf-odatlari bilan ham mushtarakdir. Tarixiy manbalarda turli marosimlar bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Eng qadimiy tarixga oid ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, totem hayvonlarga bag'ishlangan maxsus bayramlar ham uyushtirilgan. Bunday bayramlar islom dini kirib kelgunga qadar mavjud bo'lgan bo'lishi ham mumkin.

O'zbek xalqi bayramlari tojik, afg'on kabi tili boshqa xalqlar bayramlari bilan ham o'xshash. Bu holatni etnograf olimlar bir necha jihatlar bilan izohlaydilar. Bayram, xalq sayillarining o'xshashligiga asosiy sabab mazkur xalqlarning qadimgi dinlari va urf-odatlarining o'zaro uyg'unlashib ketganligidir. VII asrgacha bo'lgan davrda Markaziy Osiyo, Eron, Afg'on diyorlarida zardushtiylik va buddaviylik dinlari hukm surgan. Diniy e'tiqod bayramlarning, undagi jihatlarning o'xshashligiga yana bir omil qo'shnichilik munosabatlari hisoblanadi. Qadim davrdanoq Markaziy Osiyo xalqlari hayoti ikki turkumga bo'linadi. Birinchi turkum xalqlar manzilgoh, shaharlarda muqim, o'troq yashaganlar, boshqa qardosh xalqlar esa ko'chmanchilik bilan hayot kechirganlar. O'zaro savdo, siyosiy, madaniy aloqalar urf-odat, bayramlarning uyg'unligini ta'minlagan. Shuningdek, mavsumiy bayramlar o'zaro mushtarak hisoblanadi. Xalqlarning qaysidir qismi o'troq, qaysidir qismi ko'chmanchi bo'lsa-da, ular yashagan hudud mintaqasi, ob-havo, mavsumi bir bo'lganligi ham bayramlar o'xshashligini ta'minlagan. Bu holatni keyingi davr urf-odat, xalq sayillari, bayramlarida ham kuzatish mumkin. Markaziy Osiyoning Farg'ona vodiysi hududining tarixi uzoq asrlarga, ming yilliklarga borib taqaladi. Atroflari Tyan-Shan va Hisor-Oloy tog'lari bilan o'ralgan ushbu hudud sharoit va geografik nuqtayi nazardan odamlar yashashiga qulay manzilgoh edi. Tarixda Farg'ona vodiysi Markaziy Osiyo madaniyatida har doim muhim rol o'ynagan. Farg'ona vodiysidagi shaharlar to'g'risidagi ma'lumotlar qadimiy Xitoy salnomalarida eramizning II asri oxiridan boshlab keltiriladi. O'lka tarixini, madaniyati, bayramlarini ana shu davrlardan boshlab o'rganish mumkin. Farg'ona vodiysidagi ilk ibtidoiy jamoa tarixiga biroz nazar tashlansa, o'sha davr kishilarining mehnat jarayonlari va ovchilik faoliyatlari chuqurroq tahlil qilinsa, hududdagi ilk marosim, tomoshalar haqida dastlabki tasavvurga ega bo'lish mumkin.

O‘zbekiston hududidan topilgan va ibtidoiy jamiyat davriga mansub tasviriy san’at yodgorliklarida pantomim raqsga tushib turgan kishilar tasvirlarini juda ko‘p uchraydi. Ular turli mazmun va xarakterga ega. Ba’zilarida mehnat va ov jarayoni tasvirlansa, ba’zilarida qandaydir tabiat hodisalariga topinayotgan, sajda qilayotgan tasvirlar uchraydi. Ba’zilari jangovar o‘yinni eslatsa, boshqalari raqslar, afsungarlik va totemizm bilan aloqadordir. Mantiqan tahlil qilinsa, ovchilik o‘yinlari ilk tomosha shakli hisoblanadi. Tomosha turlari, undan paydo bo‘lgan barcha san’at janrlarining bosh manbayi, asl zamiri, ilk chashmasi mehnat ekanligini tarixchi olimlar ta’kidlaydilar.

Aslida, ommaviy tomoshalar qadimgi odamlarning ov jarayoni bilan bog‘liq. Niqob kiyib, hayvonlarga taqlid qiluvchi pantomim raqslar hatto bizning davrimizgacha saqlanib qolgan. S.Bulatov, P.Shabaratov va A.Rasulov hammuallifligidagi “Naqqoshlik” asarida: “Farg‘ona vodiysi hududlaridan topilgan ba’zi suratlar ilk tomoshalar shalkidan darak beradi. Farg‘onaning Saymalitosh tog‘i g‘orlarida suratlar ichida o‘yinga tushayotgan dumli kishilar guruhi ham bor. Ular ikki kishi-ikki kishi bo‘lib, bir-birlariga yuzma-yuz turib, qo‘llarini barobar ko‘tarib, ehtiros bilan o‘ynamoqdalar. Qadimda odamlar yashagan maskanlarda, devor-u toshlarda ov jarayonlari, jang-u jadallar, bazmlar, tantanali marosimlar aks ettirilgan”[1].

O‘zbekiston hududida tomosha elementlari tug‘ilishi va rivojlanishining ikkinchi bosqichi eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda quldorlik jamiyatining barpo etilishi bilan boshlanadi. Ba’zi bayramlar, tomoshalar o‘zaro uyg‘unlashib, bizning davrgacha yetib kelgan. Barcha bayramlar asrlar davomida evolyutsiyaga uchraydi. Undagi ba’zi elementlar mohiyatini yo‘qotib, o‘zgarib boradi. Bayramlarga vaqt, insonlar dunyoqarashining o‘zgarishi, sharoit o‘zgarishi kabi omillar o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Shu sabab bayramlar, tomoshalar, urf-odatlar mutlaqo o‘zgarib ketishi, davrga moslashishi mumkin. Bunga bir necha omillar sabab bo‘ladi. Avlodlar almashinuvi davomida bayramlar ham o‘zining shaklini, mohiyatini o‘zgartiradi. Bunga e’tiqodiy qarashlar, sharoit va siyosiy muhit ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Fikrimizcha, VII-VIII asrgacha bo‘lgan davrda tomosha elementlari zardo‘shtiylik dini hamda uning muqaddas kitobi “Avesto” bilan chambarchas bog‘liq. Zardushtiylik – diniy ta’limot, ibtidoiy dunyoqarashlarga oid bo‘lib, u muayyan marosimlar, urf-odatlar majmuasidir. Zardushtiylik marosimlarining ijro etish shakllariga ilk teatr san’atining dastlabki elementlari deb qarash mumkin. Uning diniy marosimlari ibodatxonalarda yoki keng maydonda teatrlashgan uslubda ijro etilgan. Bu borada M.Umarov “Avesto” kitobi diniy marosimlarni ijro etish uslublari hamda teatr san’ati elementlarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etishini, “Avesto” marosimlarida diniy aqidalar, murakkab qo‘shiq va xorlarning pantomim raqs bilan ijro etilishi, unda mifologik qahramonlar obrazlarining yaratilishi “Avesto”ning qo‘shiq va xor matnini bilgan va g‘oyalarini katta mahorat bilan tasvirlab bera oladigan maxsus ijrochilarni talab qilishini qayd etadi [2]. O‘sha davrda, asosan, afsonalar va qahramonlarga atab e’tiqodiy marosimlar ham ommalashgan. Keyinchalik hududga kirib kelgan islom dinining qat’iy ta’qibiga qaramay, zardushtiylik dini marosimlarining tomoshaviylik xususiyatiga bo‘lgan qiziqishi o‘rta asrda va undan so‘ng ham so‘nmagan. Yurtimizda deyarli VIII gacha hukm surgan zardushtiylik, buddizm, ibtidoiy dunyoqarashlar, totemizm, animizm kabi diniy e’tiqodlar barcha millatlar hayotida keng tomir yoyib, marosim, sayil, bayram va tomoshalarda, ko‘pincha, bir-biri bilan chatishgan, uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘lib kelgan. Keyinchalik o‘lkada hukm surgan islom dini bunday qarash, e’tiqodlarga qarshi qancha kurashmasin, uni odamlar yodidan, hayotidan butkul yulib tashlay olmadi, urf-odatlari hamda marosimlari tarkibidan siqib chiqara olmadi. Hatto bugungi kunda ham mamlakatimizning ba’zi viloyatlarida zardushtiylik e’tiqodidan saqlanib qolgan urf-odatlar uchraydi. Mamlakatimizda ommaviy tomoshalar rivojlanishida zardushtiylik dinining o‘rni katta. Bunga asosiy sabab bu e’tiqod egalari ko‘plab bayramlarni nishonlaganlar. Zardushtiylik dini hukmron o‘lkalarda yil – o‘n ikki oy, har qaysi oy va undagi har bir kun ma’lum bir bayramlar, marosimlar, udumlar bilan o‘tgan. San’at, shu jumladan, xalq tomoshalari ham

[1] Bulatov B., Shabaratov P., Rasulov M. Naqqoshlik. – T.: Iqtisod-moliya, 2010. – B.3.
[2] Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. – T.: Yangi asr avlodi, 2009. – B. 23.

zardo‘shtiylik ta’limoti ta’sirida bo‘lgan. Bu davrda O‘zbekiston hududida ham turli tomosha san’atlarining maktablari shakllangan edi.

Markaziy Osiyo hududida islom dini hukmronlik qilgan davrgacha bir qancha katta-kichik davlatlar vujudga kelgan. O‘lkada zardushtiylikdan tashqari buddaviylik dini ham keng tarqalgan. Shu sabab hududda, xususan, Farg‘ona vodiysida ham bir qancha bayramlar mavjud edi. Ma’lumot tariqasida, Namangan viloyati Kosonsoy tumanida joylashgan Mug‘ tepalik yodgorligining qadimgi Kushon davriga mansubligi u yerdagi nuroniy kishilarning fikricha qadimdan qal’a shahar markazi va harbiy qal’a sifatida bunyod etilgan, o‘sha davrda bu yerda turli xil e’tiqodiy marosimlar o‘tkaziladigan ibodatxonalar bo‘lgan. Ibodatxonalarda mangu olov yoqib qo‘yilgan va atrofida marosimlar o‘tkazilgan. Shuning uchun ham shahardan doimiy tutun chiqqanligi uchun Mug‘ qal’a deyilgan. Yana bir ma’lumotda esa qal’a harbiy istehkom bo‘lganligi sabab olovdan aloqa vositasi sifatida foydalanilgan deyiladi. Manbalarga ko‘ra, mil. I asr – mil. IV asrda Kushon davlatida budda dini bilan bog‘liq turli teatrlashgan tomoshalar mavjud bo‘lgan[3]. Fikrimizcha, bu o‘sha davrda turli ko‘rinishdagi g‘oyaviy va e’tiqodiy marosimlar bo‘lganligidan va ommaviy shaklda o‘tkazilganligidan dalolat berib turibdi.

O’rta Osiyo hududida VII-VIII asrgacha bo‘lgan xalq bayramlari tarixi hamda ularning o‘rganilishida milliy urf-odatlarimiz, xalq tomoshalari, diniy ruhdagi marosim va bayramlar alohida ahamiyatga ega. Keyinchalik islom istilosidan keyin marosim va tomosha san’atida o’ziga xos islomiy o’zgarishlar, Temuriylar davrida asosan tasviriy san’at, me’morchilik va tomosha san’ati yuqori cho’qqisiga ko’tarilgan davr hisoblanadi. O‘zbekiston teatrlashgan ommaviy bayramlar shakllanishida istiqlolga qadar uning faoliyati sobiq-ittifoq ommaviy bayramlari jarayoni, yonma-yon rivoji bilan belgilanishi, hukumatga munosabati namoyon bo‘lishi aniqlangan. Ommaviy bayramning o’sha davrlardagi vazifalari sobiq-ittifoq mafkurasini, sovet fuqoro axloqini targ‘ib qilishdan iborat edi.

1950-1960 yillardan boshlab sovet mamlakatlari qatori O‘zbekistonda ham professional teatr turlari kabi teatrlashgan ommaviy bayramlar shakllanagan.

Xulosa

So‘ngi yillarda vatanimizda bo‘layotgan ijobiy o‘zgarishlarda madaniyat va san’at tashkilotlari bilan birgalikda turizm va hunarmand tashkilotlarining o‘rni katta bo‘layotganligini kuzatish mumkin. Bu bayram tomoshalarini tashkil etish jarayonida yutimizdagi turli soha vakillari hamkorlik qilib, tasviriy san’at turlari, madaniyat va turizm salohiyatini yanada rivojlantirayotganligi aniqlandi.

Foydalangan adabiyotlar

1.- Bulatov B., Shabaratov P., Rasulov M. Naqqoshlik. – T.: Iqtisod-moliya, 2010. – B.3.
2.- Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. – T.: Yangi asr avlodi, 2009. – B. 23.
3.- Bekmurodov M., Umarov A., Qoraboyev Q., Haydarov. Ijtimoiy-madaniy faoliyat tarixi, nazariyasi va uslibiyati. – T.: Ma’naviyat, 2016. – B. 113.

[3] Bekmurodov M., Umarov A., Qoraboyev Q., Haydarov. Ijtimoiy-madaniy faoliyat tarixi, nazariyasi va uslibiyati. – T.: Ma’naviyat, 2016. – B. 113.